TOSHKENT VILOYATI BO ‘STONLIQ TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2021 - yil 30 - noyabr 225-10-136-Q/21 Bo‘stonliq tuman hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2022 yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 39-moddasi, “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 25-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-son Qarori bilan tasdiqlangan Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g'risidagi nizomga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish, tumanda 2022 yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida "Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 25-moddalariga asoslanib **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunning 39–moddasiga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynaladigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun tumandagi korxona, tashkilot va muassasalar uchun xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha sonidan 327 kishini tashkil etadigan 0.7 foiz miqdorida, shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshgacha bolalari bo‘lgan va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 40,8 foiz (134 kishi);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari 45,7 foiz (150 kishi);

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar 4,8 foiz (16 kishi);

nogironlar uchun 3 foiz (10 kishi);

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 1 foiz (3 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 4,6 foiz (15 kishi);

odam savdosi qurbonlari uchun 0 foiz (0 kishi).

2. Bo‘stonliq tumani bo‘yicha ijtimoiy muhofazaga muxtoj shaxslar uchun 2022 yilga kvotalangan ish joylarining miqdori belgilangan korxona va tashkilot ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga:

Ijtimoiy muhofazaga muxtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ish bilan ta’minlash uchun 2021 yil 15 dekabr kuniga qadar kvota ish joylari umumiy miqdorining kamida 25 foizi uchun, 2022 yilning 10 aprelidan kechikmagan holda ish joylarining qolgan qismi 75 foizini (ajratish yoki band qilib qo’yish) barpo etish, har bir kvota toifasi bo‘yicha ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar, mutaxassisliklar kesimidagi ma‘lumotlarni va qaror bo‘yicha chiqarilgan buyruq nusxalarini tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Ish o‘rinlari band qilingan korxona va tashkilotlar tomonidan 2022 yil 1 aprelga qadar band qilingan ish o‘rinlarni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 sentyabrdagi 263-sonli qaroriga asosan belgilangan tartibda attestatsiyadan o‘tkazilish amalga oshirilsin.

5. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish joylarining ko‘rsatib o‘tilgan miqdorini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-son Qarori bilan tasdiqlangan Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish

topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida nizomga muvofiq belgilangan muddatlarda va tartibda yaratilishini (ajratilishini yoki band qilib qo‘yilishini) hamda ish joylari sanitariya gigiyena normalariga va xodim o‘z majburiyatlarini bemalol bajarishini ta’minlaydigan mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlasinlar.

6. Ushbu qaror ijrosi bajarilmagan taqdirda korxona, tashkilot va muassasalarning mansabdor shaxslariga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-son Qarori bilan tasdiqlangan Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g'risida nizomning 21-bandiga muvofiq jarima solinadi.

7. Ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan korxona tashkilotlarga, O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining 2021 yil 9 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizom (AV ro‘yxat raqami №3163-3, 09 aprel 2021 yil) talablariga asosan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda korxona tashkilotlarga subsidiya mablag‘lari ajratilsin;

8. Tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi (A.Inagamov) bir hafta muddatda mazkur qarorni tegishli korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga yetkazsin hamda uning bajarilishi ustidan qat’iy nazoratni ta’minlasin.

9. Bo‘stonliq tuman hokimining 2020 yil 24 sentyabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2021 yil uchun band qilib qo‘yish to‘g'risida”gi 1954-son qarori 2021 yil 31 dekabrdan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

11. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari, moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari T.Abdijabarov zimmasiga yuklatilsin.

Bo'stonliq tumani hokimi **Ж. Ахмедов**

Бўстонлиқ туман ҳокимининг
2021 йил 30 ноябрдаги
225-10-136-Q/21-сон қарорига
1-илова
Бўстонлиқ туман ҳокимининг
2021 йил 20 сентябрдаги
160-10-136-Q/21-сон қарорига
1-илова

T/P	Xodimlarning roʻyxatdagi oʻrtacha soni 20 nafar kishidan ortiqni tashkil etadigan tashkilot nomi	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar toifasi						
		Jami	Oʻn to'rt yoshgacha va nogiron bolalari bo'lgan yolgʻiz va koʻp bolali ota-onalar	Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari	Safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o'tagan va Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar	Nogironlar va pensiyaoldi yoshidagi shaxslar	Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko'ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo'llanilishidan ozod qilingan shaxslar	Odam savdosi qurbonlari
1.	OOO "OSBORN TEXTILE"	62	26	29	3	2	2	0
2.	Burchmullo oʻrmon xoʻjalik korxonasi	56	24	26	2	2	2	0
3.	УП ENERGOQURILISHINDUSTRIYA	27	11	13	1	1	1	0
4.	УП BOʻSTONLIQ TUMANI YOʻLLARDAN FOYDALANISH UNITAR KORXONASI	23	10	11	1	0	1	0
5.	OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI	18	7	6	1	3	1	0
6.	TOVOQSOY UMFRS	15	6	7	1	0	1	0
7.	OOO OQ TOSH SANATORIYASI	12	5	5	1	0	0	0
8.	CHOTQOL RM DUK	10	4	5	1	0	0	0
9.	OOO UNIVERSAL GOLDEN WING	8	3	4	0	0	1	0
10.	OOO WONDERFUL TEXTILE	8	3	4	1	0	0	0
11.	OOO GAZALKENT MEVA	6	2	3	0	1	0	0

12.	BO‘STONLIQ TIKUVCHILARI MCHJ	6	2	3	0	0	1	0
13.	OOO CHIMGAN-CHORBOG SUV TA‘MINOTI	5	2	2	1	0	0	0
14.	MADANIYAT BO‘LIMI BO‘STONLIQ TUMANI	4	2	1	0	1	0	0
15.	BO‘STONLIQ TUMAN 1-SON KASB-HUNAR MAKTABI	4	2	2	0	0	0	0
16.	BO‘STONLIQ TUMAN IRRIGATSIYA	3	1	2	0	0	0	0
17.	OOO CHIRCHIQ GO‘SHT-SUT SAVDO	2	1	1	0	0	0	0
18.	BO‘STONLIQ TUMANI AXBOROT KUTUBXONA MARKAZI	2	1	1	0	0	0	0
19.	TOZA XUDDUD DUK BO‘STONLIQ BO‘LIMI	7	3	2	0	0	2	0
20.	TOSHKENT SUV TA’MINOTI MCHJ	12	5	6	1	0	0	0
21.	17-SON BOLALAR MUSIQA MAKTABI	4	2	2	0	0	0	0
22	18-SON BOLALAR MUSIQA MAKTABI	3	1	1	1	0	0	0
23	XUMSON SANATORIYASI davlat unitar korxonasi	14	5	7	0	1	1	0
24	AO KONVIN	8	3	4	0	0	1	0
25	125-sonli ixtisoslashtirilgan maktab internati	7	3	3	0	1	0	0